



2017 yil yanvar-dekabr oylarida Buxoro viloyatida sanoat ishlab chiqarishning rivojlanishi



Raqamlar:

- Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish - **6353,1 mlrd.so'm**, o'sish – **100,8 %ni**
- Iste'mol tovarlari – **2866,3 mlrd.so'm**, shundan: Oziq-ovqat mahsulotlari – **1379,4 mlrd.so'm**, noziq-ovqat mollari - **1486,9 mlrd.so'm**
- Sanoatning YaHMDagi ulushi – **19,7 %**

Dastlabki ma'lumotlarga asosan 2017 yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatda **6353,1 mlrd.so'mlik** sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati **100,8 %ni** tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish hajmi o'shishining asosiy omili bo'lib, tarmoqlar bo'yicha tahlil qilinganda, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarishda – **101,5%ni**, Kimyo mahsulotlari rezina va plastmassa buyumlari ishlab chiqarishda – **106,9%ni**, Boshqa nometall mineral buyumlar ishlab chiqarishda – **106,2%ni**, Ishlab chiqaradigan sanoatda **101,5 %ni**, Ichimliklar ishlab chiqarishda **106,7 %ni**, Qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarishda – **105,3%ni**, Mebel ishlab chiqarishda – **112,8%ni**, Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda – **105,7%ni**, Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda – **103,6%ni** tashkil qildi.

Yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi (%)




Ishlab chiqaradigan sanoat

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash


2017 yil yanvar-dekabr oylarida Buxoro viloyatida jami sanoat ishlab chiqarish hajmida shahar va tumanlarning ulushi (%)




2017 yil yanvar-dekabr oylarida Iste'mol **2866,3 mlrd.so'mlik** (2016 yilning shu davriga nisbatan **97,4 %**) iste'mol tovarlari ishlab chiqarildi. Bunda, oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi **48,1 foizni**, nooziq-ovqat mahsulotlarining ulushi **51,9 foizni** tashkil qildi.

2016-yil yanvar-dekabr

2017-yil yanvar-dekabr



2017 yil yanvar-dekabr oylarida hududlar kesimida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish (ming.so'm)



2017 yil yanvar-dekabr oylarida hududlar kesimida aholi jon boshiga iste'mol tovarlari ishlab chiqarish (ming.so'm)



2017 yil yanvar-dekabr oylarida iste`mol tovarlari ishlab chiqarishning aholi jon boshiga hajmining yuqori bo`lishida quyidagi hududlarning ulushi salmoqli: Qorovulbozor tumani (23631,4 ming so`m), Buxoro shahri (2497,9 ming so`m), Kogon shahri (2069,6 ming so`m), Vobkent tumani (1722,4 ming so`m) va Kogon tumani (1277,2 ming so`m).

- **2017 yil Tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturini amalga oshirish – sanoat ishlab chiqarishi hajmlari o`shirishining omillaridan biridir.**
- Tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish hajmlarining o`shishi bo`yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilishi, korxonalarining ishlab chiqarish faoliyati uchun zarur bo`lgan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni o`shirishining va import tovarlari qisqarishining omillaridan biri hisoblanadi.

Tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining asosiy ko`rsatkichlari

	2016 y. yanvar–dekabr	2017 y. yanvar–dekabr
Loyihalar soni (birlik)	13	11
Korxonalar soni (birlik)	6	7
Ishlab chiqarish hajmi (mln.so'm)	123913,9	82897,1
Eksportga qilingan mahalliyashtirilgan mahsulot hajmi (ming AQSh doll.)	253,58	337,0
Yaratilgan yangi ish o`rinlari (birlik)	9	27